

**XALQ TABOBATINING ZAMONAVIY FARMAKOLOGIYADAGI O'RNI****Yodgorxo'jayeva Diyoraxon Ilhomjon qizi, Saydaliyeva F.A.**

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti, tibbiyot fakulteti,

Toshkent, O'zbekiston.

**Dolzarlighi:** So'nggi yillarda tibbiyotda tabiiy manbalarga asoslangan dori vositalariga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Xalq tabobati insoniyat tarixida eng qadimiy davolash tizimlaridan biri bo'lib, u o'simliklar, hayvon mahsulotlari va tabiiy minerallarga asoslangan. Ko'plab zamonaviy farmakologik preparatlar aslida xalq tabobatida qo'llanilgan tabiiy moddalardan kelib chiqqan. Masalan, yurak kasalliklari uchun ishlatiladigan glikozidlar, og'riqni kamaytiruvchi alkaloidlar, yallig'lanishga qarshi flavonoidlar ilk bor aynan xalq tabobatida aniqlangan. Bundan tashqari, xalq tabobati aholining keng qatlamlari uchun qulay va arzon profilaktika vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan ham an'anaviy tabobat sog'liqni saqlash tizimining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan va ko'plab davlatlarda u zamonaviy tibbiyot bilan birgalikda qo'llanilmoqda. O'zbekiston sharoitida ham xalq tabobatini ilmiy asoslash, standartlashtirish va farmatsevtik ishlab chiqarishga tatbiq etish yo'nalishida ishlar olib borilmoqda.

**Maqsadi:** Mazkur mavzuning maqsadi — xalq tabobatining zamonaviy farmakologiyadagi o'rni va ahamiyatini ilmiy asosda yoritish, xalq tabobatida qo'llaniladigan tabiiy vositalarning farmakologik xususiyatlarini o'rganish hamda ularni zamonaviy dori vositalari ishlab chiqishda qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, xalq tabobatini zamonaviy tibbiyot tizimiga integratsiya qilish, fitopreparatlarni standartlashtirish va klinik sinovlar orqali samaradorligini isbotlashning ahamiyati ham ko'rsatib beriladi.

**Natija:** O'tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki: Xalq tabobatida keng qo'llaniladigan o'simliklar (masalan, valeriana, echinatsiya, jensheng, zubtutum, arpabodiyon, na'matak) o'zida ko'plab biologik faol birikmalarni saqlaydi. Bu birikmalar farmakologik jihatdan og'riqni kamaytiruvchi, yallig'lanishga qarshi, tinchlantiruvchi, qon bosimini tartibga soluvchi va immunitetni oshiruvchi xususiyatlarga ega. Fitopreparatlar ko'plab sintetik dori vositalariga nisbatan kamroq nojo'ya ta'sir ko'rsatadi va organizmga moslashuvchanligi yuqori bo'ladi. Zamonaviy farmatsevtik tadqiqotlar ko'plab xalq tabobatida ishlatiladigan moddalarning tarkibini tahlil qilib, ulardan standartlashtirilgan, klinik jihatdan sinovdan o'tgan preparatlar yaratmoqda. Jahon miqyosida xalq tabobatini rasmiy tibbiyotga integratsiya qilish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqilgan. Jumladan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan qabul qilingan "Traditional Medicine Strategy 2014–2023" strategiyasi an'anaviy tabobatni sog'liqni saqlash tizimiga samarali qo'shishni maqsad qiladi. O'zbekistonda xalq tabobatini rivojlantirish va farmatsevtik sanoatga tatbiq etish bo'yicha maxsus normativ hujjatlar, ilmiy markazlar va klinik sinov dasturlari joriy etilgan. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, xalq tabobati zamonaviy farmakologiyaning rivojida asosiy ilmiy manbalardan biri hisoblanadi.

**Xulosa:** Xalq tabobati — bu nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy tibbiyot va farmakologiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. U orqali yangi farmakologik faol moddalarning manbalari topiladi, mavjud dori vositalarini takomillashtirish imkoniyati

yaratiladi. Fitopreparatlar ko‘pincha profilaktika, davolash va reabilitatsiya jarayonlarida samarali qo‘llaniladi. Shuningdek, xalq tabobatini ilmiy asoslash va standartlashtirish uning tibbiyot tizimiga kengroq tatbiq etilishiga yordam beradi. Buning natijasida farmakologik tadqiqotlar yanada kengayadi, dori vositalarining sifati va samaradorligi oshadi, aholi salomatligini mustahkamlash imkoniyatlari kengayadi.